

TAGLAVHA VA DUBLYAJ-AUDIOVIZUAL TARJIMANING ASOSIY BO'LIMLARIDAN BIRI SIFATIDA

Alimova Iroda Xayritdinovna

Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy
Universiteti Xorijiy til va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda katta tezlik bilan rivojlanib borayotgan yangi tarjima sohalaridan biri audiovizual tarjima- dunyo bo'ylab katta qiziqishlarni keltirib chiqarmoqda. Rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, audiovizual tarjimini taraqqiyoti uning asosiy bo'limlari; taglavha va dublyaj bilan chambarchas bog'liq. Kinoning dunyoga tanitish uning tarjimasiga bo'lgan ehtiyojni ortgan. G'arb mamlakatlarida bu soha ancha oldin ya'ni XX asrning boshida boshlangan bo'lsa, O'zbekistonda audiovizual tarjimaning rivojlanishi ancha keyin XX asrning oxirlariga tug'ri keladi. Chunki film industriyasi O'zbekistonda hali ko'p izlanish va taraqqiyot yo'lida. Ushbu tezisda dublyaj va taglavhalarining rivojlanish tarihi bilan tanishtirilib, ushbu ikki bo'limlar haqida tushunchalar beriladi.*

***Kalit so'zlar.** Audiovizual tarjima, taglavha, subtitr, dublyaj.*

Ma'lumki, subtitr so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, O'zbekistonda taglavhalar deb nomlanishi hozirgi kunda urfga kirgan. Subtitr ya'ni "taglavhalar" bu oynai jahon ekranlarining pastki qismiga joylashtiriladigan matnga aytiladi. Subtitr asosan ekranning pastki o'rta qismiga joylashtirilib, bu joylashuv shaharlarga qarab o'zgarishi mumkin. Chunki turli mamlakatlarda subtitr va dublyaj sohasining o'rni, qo'llanilish tartibi tubdan farq qiladi. Asosan subtitr va dublyaj- audiovizual tarjimaning ikkita asosiy bo'limlari birlari deb qabul qilingan. Chunki ana shu ikkita bo'lim hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan bo'limlari hisoblanadi. Subtitr ekranda yopiq yoki ochiq holatda ko'rinishi mumkin, ya'ni ekran tepasidagi "CC" tugmasini bosish orqali subtitr ekranda ko'rina boshlanadi. Onlayn va oflayn yopiq taglavhalar haqida gap ketganda, bir nechta asosiy farqlarni yodda tutish kerak. Jonli voqealar yoki filmlar uchun, yopiq taglavhalar deb nomlanuvchi onlayn yopiq taglavhalar bir zumda tuziladi va bir vaqtning o'zida ko'rsatiladi.

Tadbirdan so'ng, video yozuv yordamida yopiq taglavhalar tayyorlanadi. Agar shoshilinch taglavhalar kerak bo'lsa, ular qisqa vaqt ichida tayyorlanishi mumkin, lekin ular "jonli" emas. Yashirin taglavhalarni ko'rib chiqayotganda, esda tutish kerak bo'lgan asosiy narsa bu taglavhalarni saqlash yoki eksport qilish mumkin emas. Ochiq taglavhalar har doim ko'rinadi va ularni o'chirib bo'lmaydi, yopiq taglavhalarni yoqish va o'chirish mumkin. Natijada, videolar Internet orqali ko'rilganda, ular ochiq yoki yopiq subtitrlarga ega bo'lishi mumkin. Faqat foydalanuvchi agenti (masalan, media tomoshabin pleyeri) yopiq taglavhalarni qo'llab -quvvatlasa, ular ko'rsatiladi.

Yuqorida aytilganidek, CC qulog'i eshitmaydigan yoki eshitish qobiliyati past bo'lgan tomoshabinlar uchun yaratilgan. Bu ular teleko'rsatuv paytida ekranda nima bo'layotganini to'liq anglashlariga imkon beradi. [1]

Yopiq taglavhalar bugun ham shu sababdan ishlatiladi. Va ular ko'pgina asosiy onlayn platforma xizmatlarida mavjud. Bularga quyidagilarni misol qila olamiz. Masalan: Hulu, Netflix, Amazon Prime, Disney va boshqa platformalar kiradi.

Taglavhalarning ommaga taqdim etilishi turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Braziliyada taglavhalar 1920 yildan boshlangan bo'lsa, audiovizual sohaga bo'lgan qiziqish va mazkur sohaga oid tadqiqotlar 1990 yillarda qayd etila boshlagan. 1930 yillarning o'rtalarida ko'pgina mamlakatlarda ovozli filmlarni paydo bo'lishi taglavhalar rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ovozli filmlardan oldin tomoshabinlar kinolarning faqat kino jarayonining o'rtasida, boshi yoki oxirgi qismlarida ekranga qo'yiladigan sarlavha "intertitles" degan kichik yoki katta hajmga ega bo'lgan matnlar orqali tushunib olishar edi. Bunga misol qilib 1920 yillarda suratga olingan "Charlie Chaplin" ko'p qismli kinosi misol bo'la oladi. [2]

Taglavhalar boshqacha nom bilan "chegaralangan tarjima" deb ham yuritiladi. Chunki taglavhalarga qo'yiladigan cheklovlar ko'p. Taglavhalarning texnik tomondan qaraydigan bo'lsak, unga cheklovlar aniq ko'rsatma bilan belgilangan. Umumiy qilib aytganda, taglavhalar ekranda ikkita chiziqli matndan oshmasligi kerak. Ular odatda gorizontalar tarzda joylanadi. Ammo ba'zi mamlakatlarda Yaponiya singari, taglavha ekranning vertikal qismida joylashadi va dialog hamda

harakatlar ketma ketligi bilan bir yo'sinda qo'yiladi. Ya'ni aktyorlarning gapirayotgan so'zlarining tarjimasi taglavha ko'rinishida bir xil soniya va daqiqaga to'g'ri kelishi kerak.

Taglavha qo'yish jarayonidagi vaqtning to'g'ri taqsimlashni tarjimonning o'zi yoki undagi texnik xodimlar amalga oshirishi mumkin. Taglavhalar qancha vaqt oralig'ida berilishi yoki matnning ekranni qaysi qismiga joylashuvi haqida haligacha aniq ko'rsatma va qoidalar yo'q. Lekin barcha xalqlararo yagona fikr bor, ya'ni taglavhalar iloji boricha kamroq tomoshabin fikrini jalb qilishi kerak. Shuning uchun taglavhalar ekranning pastki qismida joylashadi. Taglavhalarning ekranda joylashuvi quyidagi sabablarga ko'ra o'zgarishi mumkin:

- kinodagi asosiy harakatlar ekranning pastki qismida sodir bo'layotgan bo'lsa,
- sahnadan chiqayotgan yorug'lik ekranga tasirini ko'rsatsa;
- ekranning pastki qismida kinoning o'ziga tegishli bo'lgan reklama hamda shiorlar bilan to'silgan bo'lsa. [3]

Taglavhalar uchun berilgan qator odatda ikki qismdan iborat bo'lishi, undagi harflar (raqamlar va boshqa belgilar ham) esa uzog'i bilan 35-39 tadan oshmasligi kerak. Bu ko'rsatkich turli tillarning yozuviga qarab soni bilan farqlanishi mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, taglavha va dublyaj bo'limlari bir biridan farqli o'laroq, bitta sohaga oid bo'lsada ammo qonuniyatlari, ularga nisbatan qo'laniladigan tarjima metodlari, ularga bo'lgan yondashuvlar bir biridan yetarli darajada farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lawrence Venuti. (1995). *The Translator's Invisibility -- A History of Translation*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.
2. Newmark, P. (1988). *Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
3. Anderman, G., & Diaz-Cintas, J. (2009). *Audiovisual translation: Language transfer on screen text*. London: Palgrave Macmillan.